

Uzbekistan Airways Buxoroga qo'shimcha aviaqatnovni amalga oshiradi

2022 25 Aprel

Yo'lovchilar orasida talab ortishi munosabati bilan «Uzbekistan Airways» AJ 2022-yil 8-may kuni Toshkent – Buxoro – Toshkent yo'nalishi bo'yicha qo'shimcha aviaqatnovni yo'lga qo'yadi.

HY-023 va HY-024 raqamli aviaqatnovlar quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshiriladi (mahalliy vaqt):

Toshkentdan jo'nab ketish 19:30

Buxoroga yetib borish 20:40

Buxorodan jo'nab ketish 21:40

Toshkentga yetib borish 22:40

Toshkent – Buxoro yo'nalishi bo'yicha aviachipta narxi 158 183 so'mdan (bagajsiz) va 182 518 so'mdan (bagaj bilan), Toshkent – Buxoro – Toshkent yo'nalishi bo'yicha esa 304 197 so'mdan (bagajsiz) va 352 869 so'mdan (bagaj bilan) boshlanadi.

Narxlar 25.04.2022 holatiga ko'ra amal qiladi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan www.uzairways.com, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib olish mumkin.